



ASES
ACADEMY OF SCIENTIFIC AND
EDUCATIONAL STUDIES




ORIENTAL
UNIVERSITATI



ASES XI. INTERNATIONAL SOCIAL SCIENCES CONGRESS

28 -30 November 2025, Uzbekistan

CONGRESS BOOK

EDITOR: Prof Dr.QODIROV GAYRAT

ISBN: 978-625-92930-0-4

Ases XI. Uluslararası Sosyal Bilimler Kongresi

**28-30 KASIM 2025
Jizzax, UZBEKISTAN**

EDITOR
Prof. Dr. QODIROV GAYRAT

COPYRIGHT © 2025
BY ASES CONGRESS ORGANIZATION
PUBLISHING COMPANY LIMITED

ALL RIGHTS RESERVED. NO PART OF THIS PUBLICATION MAY BE REPRODUCED, DISTRIBUTED OR TRANSMITTED IN ANY FORM OR BY ANY MEANS, INCLUDING PHOTOCOPYING, RECORDING OR OTHER ELECTRONIC OR MECHANICAL METHODS, WITHOUT THE PRIOR WRITTEN PERMISSION OF THE PUBLISHER, EXCEPT IN THE CASE OF BRIEF QUOTATIONS EMBODIED IN CRITICAL REVIEWS AND CERTAIN OTHER NONCOMMERCIAL USES PERMITTED BY COPYRIGHT LAW. ASES CONGRESS ORGANIZATION PUBLISHING® IT IS RESPONSIBILITY OF THE AUTHOR TO ABIDE BY THE PUBLISHING ETHICS RULES.

ASES PUBLICATIONS – 2025©

LICANCE KEY: 2022/ 63715

25.12.2025

ISBN: 978-625-92930-0-4

Assoc. Prof. SHOMURODOV JAMSHID OLIMBOY O'G'L

ORIENTAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN)

Assoc. Prof. ABDULKADIR KIYAK

INONU UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AHMET KURTOGLU

BANDIRMA ONYEDI EYLUL UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AHMET MAZLUM

SIVAS CUMHURİYET UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AHU TANERI

NIGDE OMER HALISDEMİR UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. ASLI SAYLAN KRİMİZİGUL

ERCIYES UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AYDIN ZOR

AKDENİZ UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AYSE SEZER

BILECIK SEYH EDEBALI UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. AYSEGUL TURK

ANKARA HACI BAYRAM VELI UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. BURCU UZUM

KOCAELI UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. CANTURK CANER

KUTAHYA DUMLUPINAR UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. CUNEYT COSKUN

KASTAMONU UNIVERSITY(TURKIYE)

Assoc. Prof. CAGDAS UMIT YAZGAN

NEVSEHIR HACI BEKTAS VELI UNIVERSITY (TURKIYE)

Assoc. Prof. DERYA UZUN AYDIN

BATMAN UNIVERSITY (TURKIYE)

ASES XI. INTERNATIONAL CONGRESS OF SOCIAL SCIENCES
November 28-30, 2025 JIZZAX, UZBEKISTAN
CONFERENCE PROGRAM

28.11.2025
FRIDAY / 10:30-12:30 (Türkiye Time)
SESSION: 1HALL:13 / MODERATOR
D.N.Taylakova

AUTHORS	UNIVERSITY/INSTITUTION	TOPIC TITLE
Marhabo Isroilkhodjaeva	Oriental University	ARABIC LANGUAGE SYNONYMY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL ANALYSIS
Gunel Shefiyeva Elkhan	Languages Center of ASPU	THE IMPORTANCE OF THE OBSERVATIONAL PHASE IN A LESSON
Barno Abduxalilovna Rustamova	Oriental Universiteti	Nikoh va oilaviy munosabatlarning rivojlanish tarixi
D.N.Taylakova	Oriental Universiteti	UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA TRANSFORMATSIYACHI LIDERLIKNING O'RNI
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	Oriental Universiteti	THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF THE SOCIAL NETWORK ON THE PROCESS OF MORAL SELF-CONCEPTION IN ADOLESCENT PERIOD
katta o'qituvchisi Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich	Oriental Universiteti	USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PRIMARY EDUCATION
Faxritdinova Shoir	Oriental Universiteti	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN USTIDA ISHLASHDA TEZ O QISHINING AHAMIYATI
Shomurodov Jamshid Olimboy o'g'li	Oriental Universiteti	O'QUVCHILARNING IJTIMOY FAOLLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

**THE USE OF FOLK EXAMPLES OF ORAL CREATIVITY IN
THE DEVELOPMENT OF STUDENTS ' SOCIAL ACTIVITY SKILLS**

**O'QUVCHILARNING IJTIMOYIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARIDAN
FOYDALANISH**

SHOMURODOV JAMSHID OLIMBOY O'G'LI,

***ORIENTAL UNIVERSITETI UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASI
KAFEDRASI DOTSENT V.B. P.F.F.D., PHD.***

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanishning pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Xalq og'zaki ijodi maqollar, matallar, ertaklar, dostonlar va xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, hamjihatlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada xalq ijodiyoti vositalari asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoada faol ishtirok etish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ijtimoiy faollik, tarbiya, o'quvchi, pedagogik jarayon, milliy qadriyatlar, ijodiy faoliyat.

797

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В
РАЗВИТИИ НАВЫКОВ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ**

Шомуродов Жамшид Олимбоевич, И.о. доцента кафедры педагогики непрерывного образования Университета Oriental, д.ф.п.н., (PhD).

Аннотация. В данной статье освещается педагогическое и воспитательное значение использования образцов устного народного творчества в процессе формирования у учащихся навыков социальной активности. Устное народное творчество через пословицы, поговорки, сказки, былины и народные песни анализируются возможности воспитания у учащихся таких качеств, как общественная активность, патриотизм, сплоченность, трудолюбие. В статье представлены методические рекомендации по развитию у учащихся таких компетенций, как самостоятельное мышление, активное участие в коллективе, чувство социальной ответственности на основе средств народного творчества.

Ключевые слова: устное народное творчество, общественная деятельность, воспитание, ученик, педагогический процесс, национальные ценности, творческая деятельность.

Shomurodov Jamshid Olimboy ogli, A.a. Professor at the Department of Pedagogy of Lifelong Education, Oriental University, d.p.p.s., PhD.

Annotation. In this article, the pedagogical and educational significance of the use of samples of folk oral creativity in the process of formation of social activity skills of students is highlighted. Through Proverbs, matals, fairy tales, epics and folk songs, the possibilities of educating students about such qualities as social activity, patriotism, harmony, hard work are analyzed. The article presents methodological recommendations on the development of competencies in students based on the tools of folk creativity, such as independent thinking, active participation in the team, a sense of social responsibility.

Key words: folk oral creativity, social activity, upbringing, reader, pedagogical process, national values, creative activity

Mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tashabbuslarini, to'g'ri yo'naltirgan holda xalq og'zaki ijodi vositasida ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ko'lamini kengaytirish zarurati kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹³gi 1059-son qarori bilan tasdiqlangan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi¹³da "o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi kerak bo'lgan jihatlar: ijtimoiy faollik, bilishga intilish hamda o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi" kabi bir nechta talablar belgilangan bo'lib, mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishlarga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

O'quvchilarida ijtimoiy faollik tushunchalarini milliy qadriyatlarimiz orqali rivojlantirib borishda xalqimizning ko'p yillik urf-odatlarini, an'analari milliy bayramlari, qadimiy meroslarning o'rni a'lohida ahamiyatga ega.

Faollik – o'zbek tilining izohli lug'atida mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik deb ta'riflanadi.

Faol (lot. "actives" so'zidan olingan bo'lib) biror ishga g'ayrat bilan kirishadigan, astoydil ishlaydigan, ishchan, aktiv deb izohlanadi¹⁴.

Ijtimoiy faollik obektiv ijtimoiy sharoitlarni qayta o'zgartirishga va shaxsning ijtimoiy sifatlarini shakllantirish, ijtimoiy imkoniyatlarni (bilim, ko'nikma va malakalar) amalga

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son qarori

¹⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati Shukrona – H / Beshinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 591 b.

oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlarda o'z ifodasini topadi. Inson faoliyatini ijtimoiy hayotda tavsiflab, inson ijodkorligini, yangi ijtimoiy meyorlar va qadriyatlarni shakllantirishda tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun keng shart-sharoitlar yaratadi.

Xalq og'zaki bilish zamonaviy pedagog olimlar tomonidan yuksak ma'naviylik, milliy madaniyatga xos hamda xalq tarixiga jalb etishning munosib omili sifatida tushuniladi. E'tirof etishimiz kerakki, milliy an'analarning pedagogik imkoniyatlari katta yoshli insonlarga nisbatan chuqur o'rganilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish ko'nikmasiga ega. Lekin xalq og'zaki ijodi namunalarning o'ziga xos xususiyati sifatida sinkretizmni inobatga olgan holda tadqiqotchi olimlar xalq og'zaki ijodi shakli odatda umumiylikda folklor an'analarni tashkil etuvchi, qo'shiq kuylash, raqs, o'yin hatti harakatlari va boshqalar bilan birgalikda qo'llanilishini aniqlashga muvaffaq bo'lganlar.

O'quvchilarida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'quvchining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Xalq og'zaki ijod namunalarning shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirish vositasi sifatidagi ta'siri o'quvchining ijod namunasi subektiga aylangandagina kuchayadi. Bizning fikrimizcha zamonaviy pedagogik tizimning asosiy vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarni ijodiy jarayonning ishtirokchilariga aylantirib, ularni xalq og'zaki ijodi olamiga olib kirishning samarali metodlaridan foydalanish hisoblanadi. Kundalik hayotimizda bayramlar, an'ana va urf odatlarda, mahalla va oilaning o'zaro munosabatlarida o'quvchi yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi o'z aksini topgan.

Ijtimoiy faollikni oshirish, uni rivojlantirish masalasi qadim zamonlardan beri kelayotgan muammolardan sanalib, bevosita Avesto va Urxun-Enisey yozma yodgorliklariga borib taqaladi. -Enisey yozma yodgorliklarida ijtimoiy faollikni tarkibiy qismlari sanalgan tashabbuskorlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va xalqni arosat, tutqunlikdan qutqarishga undash ustuvor o'rin egallaydi.

Hozirgi kungacha etib kelgan qahramonlik epik janrdagi asarlarda vatan va erkinlikka intilish, yurti uchun, o'z qavmi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg'ulari ifodalanadi. Shiroq, Tumaris, Rustam, Alpomish kabi asar qahramonlari o'z vatanlarini jondan ortiq sevadi. Ular oldidagi burch hissi, xalqi va vatani uchun o'z jonini fido qilish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish, ularning oliy xislatlaridandir.

O'zbe xalq og'zaki ijodi turli janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib o'zbek xalqining o'tmishi, boy dunyoqarashi, badiiyligi, ijodiy salohiyati hamda o'z orzu-intilishlarini aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodi ertak, afsona, doston, rivoyat, qo'shiq, lapar, masal, maqol, topishmoq, badih va naqlardan tashkil topgan. Bu kabi xalq og'zaki materiallarida ijtimoiy hodisalar, vatan sarhadlarini yovuz kuchlardan himoya qilish, xalqning orzu-umidlari urf-odatlarini, rasm-rusumlari va turmish tarzi ifodalanadi.

O'tmish avlod-ajdodlarimizning pand-nasihatlarini, el e'zozlagan odam bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari, Shiroq, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabu mard, jasur yurt o'g'lonlarining qahramonliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz xalqning san'at darajasiga yetgan so'z tizimlaridan iborat maqol, doston, qo'shiq, rivoyat, afsona va bolalarga bag'shlangan boshqa janrlardagi xalq namunalarida o'z aksini topadi. Shu sababli xalq og'zaki ijod namunalarini milliy qadriyatlar deb atalgan.

Shuni aytish joizki xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb ataladi. Ushbu atamani 1846-yilda Uilyam Toms taklif qilgan. Uning ma'nosi "xalq donoligi" deb ataladi. Umuman olganda xalq donoligi deganda, xalq tomonidan yaratilgan barcha san'at namunlari tushuniladi. Bulardan: naqqoshlik, haykaltaroshlik, memorlik, zardo'stlik, musiqa, raqs, tasviriy san'at, og'aki adabiyot namunalarini folklor deb tushunish mumkin. Shu sababli har bir san'at sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turli folklor deb atayveradi. Misol qilib aytganda arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos xalq dostonlarini, ertaklarini, Musiqashunos xalq kuy qo'shiqlarini folklor asari deb hisoblaydi.

Folklor mavjud xalqning qadriyatlarini va olamning umumiy ko'rinishini, manzarasini ifodalaydi.

Folklorini o'rganish bilan tarixchi, sayohatchi, adabiyotchi, etnograf, pedagog olimlar va boshqa izlanuvchilar shug'ullanadilar

Umumta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini o'rganish bo'yicha barcha o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, tashabbuskorligini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirishga intilishlarini vujudga keltirish kerak. Olimlarning e'tirof etishlaricha kichik maktab yosh davri o'quv materiallarini, bilim tushunchalarni alohida idrok etish xususiyatiga ega. Bolalarda ko'rgazmali-obrazli fikrlash va tasavvur qilishlari keng rivojlanadi. Xalq og'zaki ijod namunalaridan foydalanish darslarda o'quv faoliyatining betakror elementi bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida o'quvchilarga o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirish, mustahkamlab borish ko'nikma va malakalarni hosil

bo'lishida zamin yaratadi. Xalq og'zaki ijodining alohida turlaridan biri bu bolalar folkloridir. Bolalar folklorining barcha asarlarini ularning funksional ro'li bo'yicha ikkita guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'yin harakatlari bilan bog'liq asarlar; (qo'fiyali sherlar, aytishuvlar)

- bolalarni o'zining so'zlimazmunga ega bo'lgan o'yinli hatti harakatlardan qat'iy nazar ijro etiladigan asarlar (alla, askiyalar, afsona va tez aytishlar, maqollar)¹⁵.

Xulosa qilib aytganda o'tmishni, hozirgi zamon va kelajakni to'g'ri tushunishni istagan har bir inson ommaviy tarbiyaning noyob vositalaridan biri hisoblangan xalq og'zaki ijodini bilishi, uning bilan yaqindan tanishtirish lozim. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xalq og'zaki ijod namunalari bilan tanishtirib, ularning ongiga singdirib borish orqali ularda milliy tarbiya tushunchalarini mustahkam shakllantirib borishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son qarori

2. O'zbek tilining izohli lug'ati Shukrona – H / Beshinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 591 b.

3. Shomurodov Jamshid Olimboy O'g'li PROSPECTS FOR THE USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'COGNITIVE THINKING. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. Science and innovation, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8349591>

4. J.O.Shomurodov POSSIBILITIES OF COGNITIVE TECHNOLOGIES IN PROVIDING STUDENTS WITH ARTISTIC AND AESTHETIC EDUCATIONAL MATERIALS CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2022.

5. Shomurodov Jamshid Olimboy o'g'li Methods for ensuring the cognitive perception of students of educational materials with artistic and aesthetic content ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL, 2021.

¹⁵ Teshaboyev A.Y. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda folklor asarlaridan foydalanish. Fil.fan.nom. dis.-T.: TDPU,1995.- 177 b.